

KOMOLIDDIN BEHZODNING ALISHER NAVOIY (HAMSA) DOSTONLARIGA ISHLAGAN RASMLARI

Abdullayeva Mohira

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

“Dastgohli kitob grafikasi” yo’nalishi

II-bosqich magistranti.

Annotatsiya Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hamsa” asariga ishlangan rasmlar, jumladan: “Layli va Majnun”, “Hayrat ul Abror” dostonlari xususida so’z ketadi. Shu bilan birga boshqa davlatlarda ijod qilayotgan rassomlarning asarlari bilan bir qatorda tahlil qilinadi.

Tayanch so’zlar: Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, miniatyura, hamsa, san’at, doston.

O’zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqillikka erishgandan so’ng tasviriy san’atga bo’lgan e’tibor kuchaytirildi va uning ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi o’rnini belgilab berishda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu boradagi islohotlarga yana bir misol bo’la oladigan yangi yo’nalishni prezidentimiz Shavkat Miromovich Mirziyoyev o’zining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o’rni va ta’sirini yanada oshirish chora tadbirlar” to’g’risidagi qarori asos bo’la oladi.

Sharqning buyuk musavviri ustoz Komoliddin Behzodning hayoti va ijodi O’zbekistonda va Badiiy akademiya tizimidagi Komoliddin behzod nomidagi Sharq miniaturalari muzeyi hamda Komoliddin behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn insituti jamoasi tomonidan o’rganilmoqda.


Madaniyatimiz va san’atimiz arbobi shoirlar sultoni bo’lmish Alisher Navoiynig dostonlarini o’rganish hamda tadbiq qilish bugungi kunda yangi barkamol avlodlarni el parvar hamda zakovatli bo’lib ulg’ayishlari uchun poydevor vazifasini bajarsa ajab emas.

Ushbu maqola yozishdan maqsad 1970-yili professor Hamid Sulaymon tartib bergan “Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar” nomli 32 rasmdan iborat terma albomda mavjud. Kamoliddin Behzod ijod qilingan deb tahmin qilingan rasmlarni alohida o’rganish hamda ularni qisqacha sharhlab, yevropa mamlakatlari san’ati bilan bog’lab ko’rsatib berishdan iborat.

Barchamizga ma’lumki Gegel o’z asarlarida G’arbiy Yevropadagi renesans davrini obrazli ibora bilan “tong yulduzi” deb atagan. Gegelning mazkur obrazli iborasini Sharq Renessansiga tadbiq qilib aytadigan bo’lsak, XV asrning ikkinchi yarmida Sharq Renessansi davrida Hirot ufqidagi zulm, iste’dod, jaholat va fanatizm biqirligi hamda qorong’ilikni yoritib yuborgan so’lim tong shafag’ida ikki ulkan

yulduz –adabiyot va san’at osmonning ikkala porloq yulduzi Alisher Navoiy bilan Kamoloddin Behzod paydo bo’ldilar.

Alisher Navoiyning hamsa asari qo’lyozmalari va ularga ishlangan rasmlarini O’zbekistonda, professor Hamid Sulaymon F. K. Sulaymonova, Sh. Qambarova, A. Madraimov va boshqalar umumiy tarzda o’rgangan.



Bu rasmlar Xuroson davlati poytaxti Hirot shahrida 1485-yili Alisher Navoiyning “Hamsa” dostoniga ishlangan. Bu rasmlarning birinchisi “Payg’ambar o’z sahobalari bilan” deb ataladi. Rasm “hayrat ul Abror” dostonining payg’ambar Na-ti-madhi qismiga ishlangan.

Ma’lumki an’anaga binoan muallif o’z asari boshlanishida payg’ambar va uning to’rt sahobasi ta’rifini keltiradi. Musilmonlar uchun ular ma’naviy hayotning ideallari hisoblanadi.

Diniy adabiyotlardan ma’lumki payg’ambar va uning sahobalari o’z davrida juda kamtarona hayot kechirganlar. Kamoliddin Behzod rasmida esa, bu tabarruk zotlar Samarqand va Hirot shahridagi eng muhtasham bino oldida tasvirlangan.

Rasmlarning yana birida hirot shahrida yashab dafn etilgan buyuk tasavvuf namoyondasi “Xoja Abdulloh Ansoriy darvishlar bilan suhbatta” nomli miniaturadir. Xoja Abdulloh Ansoriyni Temuriylar davrida “Piri Hirot” deb ulug’lashgan. U zotni podshoh Sulton Husayin Mirzo va Alisher Navoiy juda hurmat qilgan. Buyuk shoirning Hajni ziyorat qilish orzusi amalga oshmagach, podshohdan Abdulloh Ansoriy maqbarasining jorikashi (nazoratchisi) lavozimini iltimos qilgan ekan.


Rasmda Timuriylar poytaxtini, shaharlarini me’moriy binolarini eslatuvchi naqshinkor “onaqoh oldida ulug’ yoshlik” Abdulloh Ansoriy suhbatiga kelgan shogirtlariga qandaydir muhim masalani tushuntirib berayotganday tasvirlangan.

Yuqoridagi imorat kitobasida quyidagi forsiy bayt nastaliq xati bitilgan: "Ravzai huldi barin suhbat darvesh ast" darveshlar bilan suhbat jannat bog'ida sayr bilan barobar.

"Hayrat ul abror" dostoniga ishlangan boshqa miniaturalar badiiy uslub jihatidan Komoliddin Behzod asarlaridan juda katta farq qiladi.

Alisher Navoiy Hamsasidagi "Layli va Majnun" dostoniga ishlangan 2ta rasm shubhasiz Komoliddin Behzod ijodiga mansub chunki, Alisher Navoiy ushbu doston qo'lyozmasiga ilova qilgan maktubda: "Firoqnomakim yuborilibdur tasvir qilursindib ani tasvir qilaolur kishi ustod Behzoddir... aningdek tasvir qilaolur kishi yo'q erdi" deb yozilgan.

Rasmlarning birida, dashtdagi majnun yoniga kelgan otasi bilan suhbat juda jonli tasvirlangan. Rasm mazmunini yuqorida keltirilgan nastaliq xati matndan bilib olish mumkin. Majnun otasiga: "Majnunmen qays emasmen" deb javob beradi, lekin majnunnig otasi men sening otangman lekin uyda seni tuqqan onang kutmoqda hozir men seni tinch qo'yishim mumkin, lekin ertaga ollohning oldida onangga nima deb javob berasan? degandan so'ng majnun otasining bu so'zlarini eshitgandan so'ng rozi bo'ldi. Behzod ushbu miniaturani shu qadar mahorat bilan ishlaganki asardagi ota timsoli nafaqat majnunni balki tomoshabinni ham hayratga soladi.



"Alisher Navoiy ulug' shoirlar davrasida" deb nomlangan ramziy miniatyura Hirot miniatyura maktabining yana bir atoqli vakili, Kamolliddin Behzodning istedadli shogirdi Qosim Ali qalamiga mansub. Bu ramziy miniatyura ikki buyuk shaxs Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy tasvirlari asliga yaqin tasvirlangan deyish mumkin. Ushbu miniatyurada shoir siymolari tasvirlangan Alisher Navoiy esa ularning ma'noli suhbatlarini eshitayotganidan hamda ular bilan bir davrada ekanligidan mamnunligi rassom o'ta tasirli qilib tasvirlagan.



Huddi shunda yana bir asar yani freska Rafael Santi qalamiga mansub “Afina maktabi” deb nomlangan bu freskada ham huddi shunday mazmun yotadi. Rassom o’z asarida Qosim Ali singari olimlar va Faylasuflarni markazga joylagan bundan ko’rinib turibdiki miniatura san’ati avvaldan tomoshabinlarni hayratga sola olgan. Miniaturada bunday falsaaftiy suratlar ko’plb uchraganligi yevro’pa san’at ihlosmandlarini hanuz hayratlantira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2018- yil Shavkat Mirziyoyev qarorlari.
2. Kamoliddin Behzod va uning maktabi
3. I. S Braginskiy broblemi vostochnovo renessans.
4. <https://muzei-mira.com> >kartini _italia.
5. Hamid Sulaymon “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan suratlar”.